


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabrida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 58 404,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-dekabri bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-dekabridagi narxlarga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 % ga yetdi.




Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022- yil	2023- yil	
	I. YAHM	49 692,3	58 404,5	105,0
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	47 435,5	56 260,7	104,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2 256,8	2 143,8	106,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	47 435,5	56 260,7	104,9
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 642,6	23 556,4	104,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 478,2	13 506,9	107,1
	sanoat	8 234,7	9 648,0	107,1
	qurilish	3 243,5	3 858,9	107,0
	Xizmatlar	16 314,7	19 197,4	104,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 234,3	3 819,0	106,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 477,3	2 987,3	109,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	10 603,1	12 391,1	101,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 585,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.

**Yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM
hajmi va o‘sish sur‘atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,9 % ni, sanoat tarmog‘i 17,1 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 34,1 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)


	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,5	96,3
mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	3,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	41,4	41,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,2	24,0
sanoat	17,4	17,1
qurilish	6,8	6,9
xizmatlar	34,4	34,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,8	6,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	22,4	22,0

**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,9 %), sanoatda – 107,1 % (17,1 %), qurilishda – 107,0 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 104,0 % ni (34,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,5 % (6,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9 % dan (22,0 %) iborat bo'ldi.


Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 1,7 f.p. (2022- yilning yanvar-dekabrida – 2,0 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,2 f.p. (2022- yilning yanvar-dekabrida – 1,6 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2022- yilning yanvar-dekabrida salbiy – 0,3 f.p.) va xizmatlar sohasi - 1,3 f.p. (2022- yilning yanvar-dekabrida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-dekabrida – 0,6 f.p.) ga ko‘paydi.

**2023- yilning yanvar-dekabrida YAHM o‘shishida
tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**



2023-yil yanvar-dekabr oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2022-yil yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 116,2 % va sanoatda – 114,5 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,4 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-dekabrda – 67,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

